

**MA'RIFVTPARVAR OLIMLARNING BARKAMOL SHAXS  
TARBIYASIGA OID ILG'OR QARASHLARIDAN FOYDALANISH  
IMKONIYATLARI**

**Tursunboeva Xandona**

TDPU tayanch tadqiqotchi

**Kalit so'zlar:** vatanparvarlik, insonparvarlik, fidoiylik, fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ma'naviy tarbiya, farzand tarbiyasi, ota-ona, avlod.

**Annotatsiya:** Komil inson, yetuk insonni tarbiyalash juda mas'uliyatli jarayon hisoblanib, ushbu jarayonni amalga oshirishda ota-ona, o'qituvchi, jamiyatning ro'li haqida fikr-mulohaza qilingan.

**Ключевые слова:** патриотизм, гуманизм, самопожертвование, гражданское чувство, толерантность, национальные и общечеловеческие ценности, духовное воспитание, воспитание детей, родители, поколение.

**Annotatsiya:** Воспитание совершенного, зрелого человека считается очень ответственным процессом, и обсуждалась роль родителей, педагогов и общества в осуществлении этого процесса.

**Key words:** patriotism, humanitarianism, self-sacrifice, sense of citizenship, tolerance, national and universal values, spiritual education, child education, parents, generation.

**Annotatsion:** Raising a perfect person, a mature person is considered a very responsible process, and the role of parents, teachers, and society in the implementation of this process was discussed.

Yangi O'zbekistonni taraqqiy ettirish maqsadida oliy ta'lim muassasalari talaba-yoshlarni sharq mutafakkirlarining ma'naviy me'rsi vositasida ularni kasbiy faoliyatga yo'nainirish va kamol toptash orqali, ularda vatanparvarlik, insonparvarlik, fidoiylik kabi fazilatlarini tarkib toptirish o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Talabalarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida qarash, zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan shaxslar sifatida kamol toptirish, hayotga bo'lgan qat'iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash, ma'naviy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish" ustuvor vazifalar etib belgilangan. Natijada, ta'lim-tarbiya jarayonlarini ilmiy asoslangan yondashuvlar asosida takomillashtirish, oila, ta'lim tashkilotlari va mahallalarda ma'naviy tarbiyaning uzviyligini ta'minlash, zamonaviy usular asosida bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarni ijtimoiy faolligini rivojlantirish hamda mazkur jarayonning

ahamiyati va zaruriyatini asoslash o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Yoshlarni har tomonlama yetuk va komil inson bo'lishini orzu qilgan har bir ota-ona o'zlari ularning hayotida o'rnak va ibrat bo'ladigan insonlar bo'lishi kerak. Chunki har bir ota-ona yoki tarbiya beruvchi shaxsning o'zi to'g'ri tarbiyalangan bo'lsagina ko'zlangan maqsadga erishadi. Zero o'z so'zi ustidan g'olib kelmagan ota-ona farzandlarida o'zlari targ'ib etayotgan xulq-atvorning shakllanishiga muvaffaq bo'la olmaydilar. Hozirgi shakllanib kelayotgan yosh avlod o'tayotgan samaliyotga qarab "xat tashlab ket" deb qichqiradigan emas, aksincha ularda farq juda katta. Hozirgi bolalar o'sha samaliyotning markasi, tezligi, nima maqsadda qay hududga ketayotganligi, uning imkoniyatlari kabilariga qiziqadi uni chuqurroq idrok etishga urinadigan xususiyatla egadirlar.

Talabala-yoshlarni XXI asr fan va texnika imkoniyatlaridan unumli foydalanishga o'rgatish, butun dunyoda va mustaqil O'zbekistonimizda ro'y berayotgan o'zgarishlarni ko'zi bilan ko'rib undan to'g'ri xulosa chiqarishga tayyorlash, o'z iqtidori va qobiliyatini ro'yobga chiqarishda olimlarning ilg'or tajribalariga tayanish masalalari bugungi kunda o'z ahamiyatini yo'qotmaganligini belgilaydi. Farzand tarbiyasiga masul bo'lgan har bir ota – ona yangi avloddan orqada qolmasligi, takomillashib borayotgan jamiyat bilan hamnafas bo'lishi, ularni to'g'ri tarbiyalash uchun hayot bilan birga qadam tashlashi kerak bo'ladi.

"O'g'il qizning xulqi yaxshi yoki yomon bo'lsa uning sababchisi ota – onadir" (Yusuf Xos Xojib). Dunyoda o'zbeklardek, bolajon, mehnatsevar, mehmondo'st xalqni toppish qiyin bo'lsa kerak. Shunga qaramasdan, oramizda bola tarbiyasini ikkinchi, uchinchi, oxirgi o'ringa qo'yuvch, bola tarbiyasiga befarqliklari bilan, ma'suliyatini farzand tarbiyasidagi burchini unutgan, millatga, hayotning bardavomligiga, ezgulikka nisbatan xiyonat qilayotganlar ham uchrab turadi. Ota – onaning donoligi, kelajakni o'ylab to'g'ri ish tutishi farzandlar uchun bitmas tuganmas boylik-baxt ekanligini ular unutmasligi kerak.

Har biro ta – ona farzandini xushfe'l, e'tiqodli, dunyoqarashi keng bo'lishini orzu qiladi. Bu maqsadda ota – ona farzandiga yoshlikdan boshlab ham moddiy, ham ma'naviy ozuqa berishi, jismini baquvvat qilib tarbiyalashi, farzand iste'dodini kamolga yetkazuvchi, orzu – istaklarni amalga oshirishda ko'maklashishi, shu bilan birgalikda ulardagi salbiy sifatlarni yo'qotishga urinishi zarur. To'g'ri biz hamma narsada cheklov qo'ya olmaymiz, ammo farzand tarbiyasida cheklov so'zining o'rnida chegara iborasini ko'proq qo'llaganimiz yaxshiroqdir. Hayotimizga ilm olishimizga dahil qiladigan ta'sir doiralari yo'lini butunlay yopa olmasligimiz mumkin, ammo uni ma'lum miqdorda chegaralashga harakat qilsak bo'ladi. Hayotimizni bugungi kunda internet, mobil aloqlarisiz tasavvur qilishimiz qiyin, raqamli texnologiyalar asrida bulardan ayri tarzda rivojlanib bo'lmaydi, biroq bundan foydalanishda farzandlarimizga chegara qo'yishimiz mumkin. Bu borada ota – ona doimo farzandlarning ishlaridan ko'z quloq bo'lib turishlari, ularning bo'sh

vaqtlaridan unumli foydalanishlariga yordam, maslahat berib turishlari kerak. Ota – ona farzandining maktabdagi o‘qishi, ilim olish, jamoadagi ishtiroki, axloqi, yurish – turishi kabi muhim xususiyatlarga oddiy holdek qaramasdan e’tiborli bo‘lishi lozim. Ularni jismoniy mehnatda chiniqtirishi kerak, agar ota – ona bu narasalar o‘rniga faqat kelajakning moddiy asosini o‘ylasa, yo‘qotilgan vaqt bilan birga uning ma’naviy poydevori ham qulab boraveradi. Hozirgi davrda biz aynan shu masalada ko‘proq qayg‘urishimiz kerak. Biz yashayotgan ulug‘ maskan, ona yurtimizda yashab o‘tgan Imom Buxoriy, Sohibquron Temur, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Nodirabegim, Uvaysiy kabi buyuk shaxslarga o‘xshagan yangi avlod vakillarini kamolga yetkazish mumkin. Sharq xalqlari o‘zligini anglashi uchun o‘z milliy qadriyatlari va milliy madaniyatini asrab-avaylab, yuksak ma’naviyatga ega bo‘ladi. O‘zbek xalqida o‘z qadriyatlari va o‘ziga xos ma’naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda oila yetakchi hisoblanadi. Oila har bir farzand qalbida eng pokiza tuyg‘ular shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Farzand aynan oilada dastlabki hayotiy ko‘nikmalarni egallaydi. Haqiqatan, qadimdan milliy urf-odat va an’analarimizni yosh avlod ongiga singdirishda, ularni jismonan barkamol, ma’nan yetuk, mehr-oqibatli, saxovatpesha, o‘zgalar dardini his qila oluvchi, yiqilganga tirkak bo‘la oladigan insonlar qilib tarbiyalashda sog‘lom oila muhiti muhim o‘ringa ega bo‘lgan. Ilmiy manbalarda ham qadriyat masalasi bo‘yicha turli xil qarashlar ilgari surilgan: “Qadriyat inson va jamiyat ma’naviyatining tarkibiy qismi, olamdagi voqealar, hodisalar, jarayonlar, holatlar, sifatlar, talab va tartiblarning qadrini ifodalash uchun ishlatiladigan tushunchadir” – deb keltirilgan. Qadriyatlar o‘zbek xalqining bebaho boyligi sifatida madaniy-ma’rifiy hodisalar, urf-odatlar, an’analar zamirida inson qadr-qimmatining oshishiga xizmat qiladi. Oilada bolaga salomlashishdan tortib to‘g‘ri oqatlanish, kiyinish, kattalar va tengdoshlar bilan o‘zaro muloqot, jamoatchilik ichida o‘zini tutish, suvga tupurma, non ustiga narsa qo‘yma, nonning uvog‘i ham non, yoshi ulug‘larning yo‘lini kesib o‘tma, otanangning gapini ikki qilma, ustozingni hurmat qil, atrofingga befarq bo‘lma kabi ma’naviy-ma’rifiy nasihatlarini eshitib turli hikoya, rivoyat, maqol, topishmoq va tez aytishlarni tinglab, xotiralarida saqlab voyaga yetadilar va bu orqali qadriyatlar singdirib boriladi. Milliyligimizga xos bo‘lgan mehnatsevarlik, sabr-toqat, irodalilik, sadoqat, samimiyat, ishonch, vatanni sevmqlik, adolat, poklik, to‘g‘rilik singari fazilatlar shaxsiy namuna sifatida ota-ona orqali farzandga beriladi. Urf-odat va an’analar oilaviy qadriyat sifatida ham farzandlarning hayot tarziga yoshliklaridan ota-onalariga ko‘mak berish, so‘ngra o‘z oilalari uchun qayg‘urish hissini singdirib borishda asosiy rolni bajaradi. Oilaviy qadriyatlar har bir oilaga xos bo‘lgan, oila uchun ustuvor hayotiy maqsadlarni belgilaydigan, oila a’zolari o‘rtasidagi munosabatlarni tashkil etadigan va uning hayotiga ta’sir qiluvchi g‘oyalar to‘plamidir. O‘zbek pedagogikasining bunyodkorlaridan bo‘lgan Abdulla Avloniyning tarbiyaga oid ilg‘or g‘oyalari farzand tarbiyasida o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi degan fikrni ko‘p bor takrorlab o‘tadi

Har kishining dunyoda oromi joni tarbiyat

Blki oxirida erur dorulamoni tarbiyat.

Tarbiyat hamroh etadur hur ila rizvonlara

Gar desam bo'lmis xato, jannat makoni tarbiyat.

Yuqoridagi misralarda butun bir millat haqiqatini isbot etadilar. Bola tarbiyasiga e'tiborli bo'lmagan millat inqirozga yuz tutadi, farzandlarini yot qo'llarga va yot madaniyatlar ixtiyoriga berib qo'yadi bu birgin ota – onaning emas bola tarbiyasiga ma'sul bo'lgan ustozning, mahallaning, jamiyatning va butun boshli tariximizning, millatimizning ham yo'qotishidir. Ota – ona farzand tarbiyasida qiyosiy tarbiyaga ko'p murojat qilishga urinadi, bu holda o'zi bilmagan kamchilik va xatolarga yo'l qo'yadi. Bolani qaysidir tengquriga qiyoslar ekan unga dakki berishi tayin “seni undan qayering kam, undan o'rnak olsang bo'lmaydimi” shu va shunga o'xshash koyishlarni eshitgan bolada o'sha tengquriga nisbatan nafrat yoki muomilasida salbiy o'zgarishlar yuzaga keladi, tarbiya qiluvchi shaxs esa bola tarbiyasida ezgu fazilat o'rnida “xasad” atalmish bir illatni paydo qilib qo'yadi. agar mana shu qiyosiy tarbiyani ota - ona boshqa bir yo'lla bilan bolaga singdirsa uning natijasi albatta bo'ladi. Yuqoridagi tanbehlarni bolaga “seni harakating undanda yaxshiligiga biz ishonamiz, senga bo'lgan ishonchimizni oqlaysan degan umiddamiz, yoki bolam sen hammasini uddalay olasan axir sen mening farzandimsan” deya aytadigan bo'lsak bolada o'ziga bo'lgan ishonch ortadi, u yaxshiroq o'qishga, ota – onasining say harakatlarini munosib baholashga odatlanadi. Shu bilan birgalikda ota – onasiga nisbatan fahr tuyg'usi ham voyaga yetib boradi. Jomiy hazratlari o'z pand-u nasihatlarida ota onalarga shunday maslahat beradilar “Bola yetti yoshga yetgacha, uni ilm olishga va johillik botqog'idan qutqarishga uriniladi, agar unga ilm o'rgatishning iloji bo'lmasa birorta yaxshi hunarga o'rgatiladi. Agar sening moling qancha ko'p bo'lsa ularni farzandingni ilm va hunar olishi yo'lida sarfla. Ilm yo hunar o'rganmagan kishilar uch toifadagi kishilardir, ular yo zoxid, yo tanbal yoki takabbur kishilardir. Agar u zoxid bo'lsa ta'na balosiga giriftor bo'ladi, agar tanbal bo'lsa nochorlikdan oxiri o'g'irlik yo'lga kiradi. Kimki kasbu koriga ega bo'lsa bunday illatlardan uzoqda bo'ladi”. Har bir ota – ona o'tayotgan on, har daqiqadan farzandlarini ilm va adab saviyasini yuksaltirish uchun unumli foydalanishi zarur. Farzand deb atalmish ulug' ne'matning tarbiyasi kelajakda qanday inson bo'lib voyaga yetishi birinchi navbatda ota- onaning so'ngra o'z farzandlari tarbiyasiga befarq bo'lmagan o'qituvchi ustozlar va millatning zimmasidadir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi o‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-son Farmoni: <https://lex.uz/docs/-5841063>
2. Shavkat Mirziyoev. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2016. – B. 487.
3. Ma’naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug‘ati. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010. – B. 707